

---

---

## PARRANDACHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRILISHIDA GIDROPONIK

### OZUQALARNING AHAMIYATI

Abdisalomova M. A., Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktorant

Kuziyev M. S., Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

*Kalit so'zlar. qishloq xo'jaligi, go'sht va go'sht mahsulotlari, parranda zotlari.*

Hozirgi kunda dunyo aholisini tabiiy hamda ekologik jihatdan toza, to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan mamlakatimizda ham aholini to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda qishloq xo'jaligi, ya'ni parrandachilik sohasi alohida ahamiyat kasb etadi. Parrandachilikda, parrandalarni to'yimli ozuqa ratsioni bilan ta'minlash, ozuqalarning to'yimlilikini oshiruvchi ozuqaviy qo'shimchalarni izlab topish, ularning biologik qiymatini ko'paytirish orqali parrandalarning masuldorligini oshirish mumkin [2].

Parrandachilik sohasida dunyo miqyosida go'sht va go'sht mahsulotlari, tuxum, pat, par kabi mahsulotlar olinadi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi hamda aholining sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga erishiladi. Bundan tashqari tovuq go'shti sohasini rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqilib, ularni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. [1]

Parrandachilikni rivojlantirish dastlab mahsuldor parranda zotlarining ishlab chiqarilishi, seleksiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi hamda ularning sifatli va to'yimli ozuqa ratsionlari bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Buning uchun parrandalarni to'yimli ozuqa ratsionlari bilan ta'minlab, ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishda qo'shimcha tabiiy biologik qo'shimchalarni qo'shish va ularni ilmiy asoslash bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida broyler tovuqlari uchun shakllantirilgan ozuqa ratsionini gidroponika usulida yetishtirilgan yashil bug'doy bilan boyitdik. Gidroponika usulida yetishtirilgan yashil massali bug'doy C, E, K va B guruhi vitaminlarining manbai bo'lib xizmat qiladi. Ular ayniqsa riboflavin va karotinga boy (280 mg / kg gacha). Gidroponik ozuqa tarkibida estrogenik moddalar ko'p bo'lib, ular hayvonlarda jinsiy reflekslarni kuchliroq namoyon bo'lishini ta'minlaydi, reproduktiv xususiyatlarini kuchaytiradi va kunlik o'sish ko'rsatkichlarini oshiradi [3]. Biologik, hamda asosan ozuqaviylik xususiyatlariga ko'ra gidroponik usulda yetishtirish uchun qulay mahalliy kuzgi bug'doy tanlab olinib 7 kun davomida, optimal sharoitda gidroponika usulida yetishtirildi, bunda 1 kg bug'doyning biomassasi 8,5-9,0 kg gacha oshirildi. Yetishtirilgan gidroponik yashil ozuqa bilan Ross-308 zotli broylerlarining 1 kg ozuqa ratsioni 50 g dan gidroponik ozuqa bilan boyitildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra gidroponik ozuqa bilan boyitilgan ozuqa ratsioni to'yimlilik, yedirimlilik, hazmlanishining ortishi natijasida broyler

---

---

tovuqlarining kunlik o'sish ko'rsatkichi oshishi va ulardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviylik qiymatlarining yaxshilanishi kuzatildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tovuqlar ratsionini gidroponik yashil bug'doy bilan boyitilishi, tovuqlarning tabiiy ozuqa bilan oziqlanib tez yetilishi, go'sht tarkibining vitamin va to'yimli moddalarga boyigan holda tez tayyor bo'lishini ta'minlaydi, natijada aholi parhez bop oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146-son "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ,
2. В. И. Авраменко Корма и кормление домашнего скота и птицы/ Авт.-Сост. В. И. Авраменко. - М.: ООО «Издательство АСТ»; Донецк: «Сталкер», 2003.
3. А. П. Калашникова, В. И. Фисина, В. В. Щеглова, Н. И. Клейменова. Нормы и рационы кормления сельскохозяйственных животных. Справочное пособие. 3-е издание переработанное и дополненное. / - Москва. 2003. - 456 с.